



MILLIY ONG, TOLERANTLIK, TIL VA NUTQ MASALALARI

Bobokalonov Ramazon Rajabovich

filologiya fanlari doktori, Buxoro davlat universiteti professori

Karimova Xosiyatbonu Azim qizi

Buxoro davlat universiteti iqtidorli talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11274806>

Annotatsiya : Maqolada milliy ong, tolerantlik, til va nutq masalalari yuzasidan ilmiy mushohada yuritilgan. Unda mustaqillikni mustahkamlash, davlatni siyosiy tutqunlardan ozod etish, iqtisodiy muammolarni bartaraf

Kalit so'zlar : milliy ong, tolerantlik, til va nutq, millat, davlat, jamiyat, gipo-giperonim, sabr

Xalqimiz, siyosiy ma'noda tolerantlikning - siyosiy o'zgarishlar davrida yurt chegaralarining daxsizligini ta'minlab, tinch va osuda turmush tarziga ziyon yetkazmasdan farovon hayot qurish va unda yayrab-yashnab yashash uchun tanlangan aniq bir yo'l, vosita, siyosiy tadbir ekanligiga amin bo'ldi va uni qo'llab-quvvatladi. **Tolerantlik** - mustaqillikni to'laqonli qo'lga kiritish, davlatni siyosiy tutqunlardan ozod etish, iqtisodiy muammolarni bartaraf etish, yangi ijtimoiy-siyosiy tafakkurni barpo etish bilan birgalikda jamiyatni va jamiyat a'zolarini, filhaqiqat aytganda, buyuk davlatlar safidan joy olishi uchun qo'yilgan aniq va to'g'ri qadamdir. Tolerantlik o'zbek xalqiga xos bo'lgan ulug' fazilat. Bu fazilat til va tafakkurning davriy rivoji, tarixiy-tadrijiy omil, milliy qadriyat va xalq mentaliteti bilan bog'liq serqirra jarayonda toblangan bo'lib, u hamma xalqlar tili va dilida bir xil yoki bir chiziqda namoyon bo'lavermaydi. SHu sababdan bo'lsa kerak, ba'zi olimlar tolerantlikni axloqshunoslik faniga mansub kategoriya sifatida talqin qilishadi. « Ba'zi manbalarda ma'naviy-ma'rifiy vazifalarini talqin qiluvshilar tolerantlikni shaxslararo va guruhlararo belgi-munosabatlariga ko'ra madaniyatshunoslik fanining muhim kategoriyasi deb, yana ba'zilar esa davlat va siyosat nuqtai nazaridan bu leksema politologiya fani terminiga aylanganligini bayon qilishadi. Sotsiologlar ijtimoiy va demokratik o'zgarishlar misolida bu atama ostida fikrlar xilma-xilligi va rang-barangligi mujassam bo'lganligini ta'kidlashadi » [7]. Biz esa shu tushunchalarni sotsiolingvistik, kongnitiv lingvistik va qiyosiy-tipologik aspektida tilshunoslik fani kesimida tadqiq qilishni o'z oldimizga maqsad qildik.

Asosiy qism

« Tilning millat, davlat va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni juda muhim, o'ta zaruriy va dolzarb masaladir. Bu tushunchalar o'zaro dialektik bog'liq va o'zaro aloqador tushunchalardir. millat, davlat, jamiyat taraqqiy qilar ekan, uning tili va



tilshunosligi bo'y cho'zadi. Davlat va jamiyatdagi o'zgarishlar birinchi navbatda tilda, xususan, uning leksikasida – lug'at boyligida o'z aksini topadi. » [1]

Tolerantlikni shakllantiruvchi vosita til va nutq belgilari – insonlarning o'zaro muloqoti asosi bo'lib xizmat qiladigan nutqiy hosila gapdir. Uning asosan ikki ko'rinishi : 1) *me'yoriy* – **grammatik shakllangan** va 2) nome'yoriy - **semantik-funkstional shakllangan** turi mavjud. Grammatik shakllangan gaplar tolerantlik ruhiyatiga qanchalik ta'sir etsa, semantik-funkstional shakllangan gaplar ham shunchalik ahamiyatga egadir. Biz mazkur ishda *semantik-funkstional shakllangan gaplar* (o'zbekcha ifoda) va *kononik gaplar* (fransuzcha ifoda) ni kononik modelli nutqiy hosilalar (KMNH) ostida birlashtirib, ularning lisoniy//nutqiy ko'rinishlari hamda tolerantlik ruhiyatiga ijtimoiy-siyosiy ta'siri haqida bahs yurutdik [5].

Tolerantlik mohiyatan tarixiy-tadrijiy jarayonda shakllangan falsafiy-didaktik kategoriyadir. Bu haqda yunon antik falsafasidan ham bilish mumkin. Chunonshi, Demokritning axloqiy qarashlarida : « Bir kishiga bir narsa yoqimli bo'lsa, ikkinchi kishiga ikkinchi narsa yoqimli bo'ladi, biroq barsha kishilar uchun yoqimli va farovon, haqiqat bittadir.» «Kishi ezgulik ish to'g'risida shiroyli gapirish o'rniga, unga intilishi kerak.» «Me'yor ezgu va baxtli hayot uchun zarur,» [8] - degan qimmatli fikrlarining tagma'nosida tolerantlik yashiringanini anglash qiyin emas.

Demokritning ma'naviy pozitsiyasi esa oqillik bilan ajralib turadi. "Oqillik - oliy fazilat. Aql tartibning mezonini tashkil etadi. Yaxchilik, bu – foyda". Me'yordan ortiq lazzatga berilgan, chegarani bilmagan kishilarni Demokrit axmoq va tentak bilib, ular o'z kulfatlariga o'zlari aybdor bo'lishlari mumkin, deydi. Uning ta'kidlashisha, "faqat donishmandgina o'z ehtiroslarini yengishi mumkin" [5]. Demak, tolerantlik tarbiya vositasi sifatida qaralar ekan, unda xalq donishmandligi har doim hamroh bo'lishi tayin.

Platonning "G'oyalar dunyosi haqidagi ta'limoti" dagi fikrisha eng oliy g'oya bu « farovonlik » g'oyasidir. "Farovonlik mohiyat emas, lekin u o'zining ulug'vorligi va qudrati ila mohiyat chegarasidan ustun turadi". "Farovonlik g'oyasiz barsha insoniy bilimlar, u hatto mukammal bo'lmasin, asossizdir" [8].

Aristotelning axloqiy qarashlarida ham tolerantlikka xos aniq falsafiy ifodalarni kuzatish mumkin: "Yaxchilik – ma'lum darajada o'rtamiyonalikni tashkil etadi, chunki u doimo o'rtachaga intiladi. Komil kishilar bir xil bo'ladi, yomonlar har xil bo'ladi." Bundan xulosa qilish mumkinki, *tolerantlik* jamiyat o'rtasida mu'tadillikni belgilab beradi. Aristotel tasniflagan axloqiy illatlar va fazilatlar :




1. Fazilatlar	2. Illatlar
Jasurlik, dovyuraklik	Qo'rqoqlik.
Mo'tadillik	O'zini tiya bilmaslik.
Saxiylik	Ehtirossizlik.
Savlatli bo'lish	Isrofgarchilik, xasisilik.
Himmatli bo'lish	Takabburlik, pastkashlik.
Muloyimlik	Maqtanshoqlik, himmatsizlik
To'g'rilik	Qo'pollik.
Haqguyluk	Takabburlik, kamsitishlik.
Dilkashlik	Masxarabozlik, qo'pollik
Mehribonlik	Bema'nilik, toshbag'irlik
Adolatlari bo'lish	Adolatsizlik.

SHunday qilib, tadqiq ob'ektiga olingan umumiyligi ma'nodagi tolerantlik, ya'ni bag'rikenglik juda qadimiyligi falsafiy-axloqiy kategoriya bo'lib, uning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rni muhim ahamiyatga molikdir [5]

Agarda biz tolerantlik, ya'ni bag'rikenglikni leksemalar zanjirida gipo-giperonim (mutlaq va bosh leksema - « **giponimiya** » haqida keyingi bo'limda bat afsil to'xtalganmiz) deb baholasak, uning leksik zanjirida birgina “sabr” leksemasi boshqa leksemalardan ko'ra eng muhim giponimlar qatoridan joy oladi. Buni shunday berish mumkin:

Tolerantlik (bag'rikenglik) - *gipo-giperonim* = sabr - giponim (toqat, qanoat, itoat, aql, farosatlilik – *giponomik qator*) + iyomon-e'tiqodlilik - *giponim*; kechirimlilik - *giponim* (kechirim, avf, to'zim, oljanoblik – *giponomik qator*) + adolat - *giponim* (odillik, xolislik, haqqoniylilik, haqqoniyat – *giponomik qator*) + saxiylik - *giponim* (homiylik, hotamlik, oljanoblik, biron narsani ayamaslik, ezgulik – *giponomik qator*) + oljanoblik - *giponim* (oliymaqom, yuqori darajada odobli, olihimmat, o'ta odamoxun, yuqori himmatli inson – *giponomik qator*) + mardlik - *giponim* (jasurlik, botirlik – *giponomik qator*) + himmat - *giponim* (yaxchilik, marhamat, yordam, saxovat, oljanoblik – *giponomik qator*) + ochiqko'ngillilik - *giponim* (xushfe'lllik, beg'uborlik, xushshaqshaqlilik – *giponomik qator*) + diyonat - *giponim* (1. Vijdon, vijdonlilik, insof, andishalik, 2. Iyjonlilik, dindorlik, taqvodorlik) + sabr (1. To'zim, toqat, 2. Chidam, bardosh, 3. SHukr, qanoat) + qanoat (1. Boriga ko'nish, nafsni tiyish, 2. Mamnunlik, xursandlik, mammuniyat, qoniqish, 3. SHukronalik, chidamlilik, bardoshlilik), + hilmlik (halimlik, muloyimlik, xushfe'lllik) + xayrixohlik (ma'qullash, olqishlash, qo'llab-





quvvatlash) + shukr (rozilik, tiyilganlik, qanoatlilik)... + (va *N - cheksiz ma'nolar majmui*) [5].

Leksik jihatdan olib qaralganda “sabr” arabsha so’z bo’lib, birinchi ma’nosи - “oshiqmasdan kuta bilish yoki o’zini tiya olish, to’zim, toqat”, ikkinchi ma’nosи “chidam, bardosh”, ushinchi ma’nosи “qanoat”dir. Sinonim ravishda “sabr-bardosh” (arabsha-forscha), ya’ni “sabr va bardosh, to’zim va chidam” so’zi ishlatiladi [9]. Va yana “sabr” so’zining uyadosh-sinonimik qatorida sabr-toqat (sabr-toqatli), sabr-qanoat (sabr-qanoatli), sabr-qaror qo’shma so’zlari ham joy oladi.

Falsafiy-psixologik bosqichda “sabr” – insonning matonatli va bordoshli bo’lishiga, irodasini mustahkamlash va hayotga teranroq nazar tashlash qobiliyatlarini tarbiyalashda axloqiy-ruhiy pilapoya sanaladi. Xalq donishmandligida “Sabrning tagi – oltin”, “Sabr qilsang, g’o’radan halvo bitar”, “Aqlingga aql qo’sh, jahlingga sabr”, “Sabrni shidaganga chiqargan” kabi maqollar mavjud. Hattoki, “Yetti o’lshab, bir kes”, “Katta oshga shoshil, katta ishga shoshilma”, “SHoshilgan qiz erdan yolshimas”, “Arqon (yoki qalmoq) ni uzun tashlab qo’y” kabi hikmatli so’zlarning tagma’nosida ham “sabru aql bilan o’ylab ish qilish” nazarda tutilgan.

Sabr tushunchasi zamirida Komil Insonni shakllantiradigan, uni ezkulik sari yo’naltiradigan ko’plab qimmatli fazilatlar mujassam. Xususan : *mulohazakorlik, keshirimplilik, himmat, insoniylik, mehr-oqibat, muruvvat, saxovatpeshalik* kabi o’nlab leksemalar bir mutlaq va bosh leksema - tolerantlik leksik birlik atrofida birlashib, **“yadro+qurshov+qurshov zanjirlari”** doirasida ierarxik (pog’onalı, o’suvshan) ravishda bir nuqtaga talpinib to’qnashib turadi.

Mazkur ishda faqat tolerantlikning atigi bir gipo-giperonimik qurshovidan joy olgan “sabr” haqida aniqlik kiritishni mudao qildik, xolos. Qolgan leksemalar ham xuddi shunday zalvorli leksik maydonni tashkil etishi anikdir.

Endi Qur’oni Karimdagi “Furqon” surasining 20-oxirgi oyatida bayon etilgan muqaddas nozillarga e’tibor beramiz: “(Ey Muhammad). **Biz sizdan ilgari yuborgan barcha payg’ambarlar ham, shak-shubhasiz, taom yer va bozorlarda yurar edilar. Biz sizlarning ba’zilaringiz uchun fitna - sinov qilib qo’ydik** (ya’ni sizning oddiy odamlar kabi faqirona kun kechirishingiz boshqalar uchun bir sinovdir. Chunki agar Biz sizni boy-badavlat qilib qo’yganimizda, ular sizga shu mol-dunyongiz uchun itoat qilgan bo’lur edilar). **Sizlar** (Bizning bu sinovimizga) **sabr qila olurmisizlar? Parvardigoringiz ko’rib turguvshi bo’lgan zotdir**”, degan izoh uchraydi. Shuaro surasining 151-152-oyatlarda « **Va yer yuzida buzg’unchilik qiladigan va (hech narsani) o’nglay olmaydigan** »



haddan oshguvchi kimsalarning amriga itoat etmanglar » deb mo'min-musulmonlarni buzg'unchilikdan ogoh etilgani sabrsizlik qilib birovlarining rayiga ko'r-ko'rona kirmaslikdan xabar beradi [10].

Luqmon surasining 12-oyatida shukr qilgan inson ham sabrli ulug' zot ekanligi e'tirof etiladi : «*Aniqki, Biz Luqmonga hikmat ato etdik (va unga dedik)* : «*Oollohga shukr qilgin ! kim shukr qilsa, faqat o'z foydasi uchun shukr qèlur* (ya'ni qilgan shukrining foydasi o'ziga bo'lur). *Kim noshukrlik qilsa, bas, albatta, Olloh* (uning va barcha olamlarning shukr qilishidan) *behojat va hamdu sanoga loyiq zotdir.* »

Sabr-toqat haqida Ankabut surasi (59-60-oyatlar, 279-bet)da ham quyidagi ma'lumot uchraydi : “. *Ular* (kofirlar tomonidan bo'ladigan zulmu kulfatga) *sabr-toqat qilgan va yolg'uz Parvardigorlarigagina tavakkul qiladigan- suyanadigan zotlardir.* 60. *O'z risqu ro'zini ko'tara (topa) olmagan qanchadan-qancha jon-zotlar bordir. Olloh ularga ham, sizlarga ham risqu ro'zini berur. U eshitguvchi va bilguvchidir.*” [10] Hadisi sharifda: “*Kimiki shoshilmay, sabr, qanoat bilan ish qilsa, qilgan ishi to'g'ri bo'ladi*”, deyilgan.

Xulosa

Tolerantlik o'zbek xalqiga xos bo'lgan ulug' fazilat. Bunday fazilat hamma xalqlarda bir xil namoyon bo'lavermaydi. Ba'zi olimlar tolerantlikni axloqshunoslik faniga mansub kategoriya sifatida talqin qilishadi. Ba'zi manbalarda tolerantlikning ma'naviy-ma'rifiy vazifalarini talqin qiluvshilar shaxslararo va guruhlararo belgi-munosabatlariga ko'ra madaniyatshunoslik fanining muhim kategoriyasi deb, yana ba'zilar esa davlat va siyosat nuqtai nazaridan bu leksema politologiya fani terminiga aylanganligini bayon qilishadi. Sotsiologlar ijtimoiy va demokratik o'zgarishlar misolida bu atama ostida fikrlar xilma-xilligi va rang-barangligi mujassam bo'lganligini ta'kidlashadi [7]. Biz esa shu tushunchalarni sotsiolingvistik yo'nalishda tadqiq qilishni, o'z oldimizga maqsad qilganimiz bois, mazkur ishda faqat uning atigi bir gipo-giperonimik qurshovidan joy olgan “sabr” haqida aniqlik kiritishni mudao qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бобокалонов Р. Тил, миллий руҳ ва маънавият (мулоҳаза, мушоҳада ва муносабат). Илмий-оммабоп рисола, Тошкент, 2020. 9 б.
2. Bobokalonov R. R. Speech production, semiotic sign, discourse and neuropsycholinguistic status. Monograph, GlobEdite. Republic of Maldova, Europe printed, 2023. Pages 3-223.ISBN: 978-620-0-64729-0.
3. Бобокалонов Р.Р. Нейропсихолингвистика: языковая личность и харизматичный человек (Теория, практика и методология). Monografiya,



LAMBERT Academic Publishing, Shisinau, Moldavia-Europe, 2023. 230 s. ISBN 978-620-6-15214-9

4. Bobokalonov R. R. Neuropsycholinguistics: linguistic personality and charismatic person. Theory, practice and methodology. Monografiya, LAP LAMBERT Academic Publishing, Republic of Moldova, Europe printed. 2023. P. 3-230. ISBN: 978-620-6-15214-9.
5. Po'lotshoh Bobokalonov. Kanonik modelli nutqiy hosilalarning tollerantlikka aloqadorligi. Monografiya, "Fan ziyosi" nashriyoti, Toshkent, 2021.
6. Sayfullaeva R. R., Bobokalonov R. R. Neuropsycholinguistics: the linguistic personality and the charismatic person. Monograph in uzbek, GlobEdite. Republic of Maldova, Europe printed, 2023. Pages 3-149 ISBN: 978-620-0-64878-5.
7. Ёшларда ижтимоий толериантликни юксалтириш масалалари. Илмий-назарий конференция материаллари, Бухоро. Тошкент, 2006. 2-266 б.
8. Қадимги ва йўрта аср фалсафаси. Т. : Фан, 2003. 40-41 б.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-т. Изд. "Русский язык", Москва, 1981, 6-б.
10. Куръони Карим. Ўзбекча изоҳли таржима, таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. Т. : З-348 б.

